

**Tursunova Durdona Muminjon qizi**  
*SamDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi*  
*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Xamsa" si salaflari "Xamsa" si bilan solishtirilib, tahlil va tadqiq etilgan.*

**Kalit sozi:** *Xamsa, "Panj ganj", "Maxzan ul-asror", "Matla ul-anvor", "Tuhfat ul-ahror", "Hayrat ul-abror", basmala, Bismillahir rohmanir rohiym,*

**Annotation:** *This article compares, analyzes and researches Alisher Navoi's "Khamasa" with its predecessors "Khamasa".*

**Keywords:** *Khamasa, "Panj Ganj", "Makhzan ul-Asrar", "Matla ul-Anwar", "Tuhfat ul-Ahror", "Hayrat ul-Abror", Basmala, Bismillahir Rahmanir Rohiym,*

Sharq mumtoz adabiyotida xamsachilik ananasini ozar xalqining shoiri Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. "Panj ganj" nomi bilan mashhur dostonlar turkumini insoniyatga tuhfa qilgan.

Nizomiy an'alarini birinchi bolib davom ettirgan XIII-XIV asr boshlarida Hindistonda yashagan shoir Amir Xusrav Dehlaviy boldi. U Nizomiy dostonlariga javoban o'z "Xamsa" yaratdi.

XV asrga kelib ulug' fors-tojik mutafakkiri Abdurahmon Jomiy Nizomiy va Amir Xusrav analarini davom ettirib, "Haft avrang" dostonlar turkumini yaratdi.

XV asrga kelib, xamsanavislik an'anasini benazir shoir Alisher Navoiy davom ettirib, "Xamsa" asarini yaratdi. Navoiy ta'bi xazinalar mezoni kabi bo'lib, bunda Nizomiyning "Panj ganj" asari tarozi toshiday baholash mezonidir.

Nizomiy dostonlari shoir dunyoqarashining kengligi va bilimining teranligini namoyish etsa, Xusrav Dehlaviy "Xamsa"si ruhiyat teranligi va qalb boyligiga ega.

Nizomiy o'z beshligini nima uchun aynan axloqiy-falsafiy mazmundagi dostonidan boshlaganini bugun izohlash qiyin. Dehlaviy esa Nizomiy izidan borgan va shu tariqa an'ana vujudga kelgan. Keyin "Xamsa" yozishga kirishganlar bu an'anaga amal qilishi tabiiy edi. Jumladan, Abdurahmon Jomiy o'zining "Tuhfat ul-ahror" dostonini shu yo'sinda yozgan. Biroq Jomiy "Xamsa"chilikni davom ettirmagan- an'anaviy beshlik mundarijasidan chekinib, faqat o'ziga xos, "Haft avrang" deb atalgan yettita dostonidan iborat turkum yaratgan.

O'z-o'zidan savol tug'iladi: Jomiy "Panj ganj" mavzular turkumidagi besh dostonidan iborat "Xamsa" yozmay, an'anadan chetga chiqqanining sababi nima? Asosiy versiya: beshlikning ikkinchi dostoni Nizomiyda ham, Dehlaviyda ham, Xusrav bilan Shirin o'rtasidagi muhabbati bilan bog'liq voqealarga bag'ishlangan bolib, bunday syujetni Jomiy ma'qul topmagan: "Men qaysidir shohning qaysidir

go‘zalga ishq to‘g‘risida hikoya qiluvchi roviy emasman", deya, tasavvufiy talqini ayon "Yusuf va Zulayho" dostonini bitishni afzal topgan.<sup>117</sup>

Bu bilan an'anaviy mundarijadagi "Xamsa" emas, Jomiyning "Sab'a"si dunyoga kelgan. Hech kim Navoiydan song "Xamsa" yozib, muvaffaqiyatga erishmagan bo'lsa, hech kim Jomiydan keyin "Sab'a"sigga javob yozishga erishmagan. Shu bilan bu ikki asar Sharq mumtoz adabiyotining yetib bo'lmaz cho'qqilari bolib qoldi.

Bizningcha, Jomiyning besh dostonlik majmua o'rniga yetti dostonlik majmua yozganligining boisi borki, u "Hayrat ul-abror" dostoni bilan bogliq. Jomiy Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarini o'qib chiqqach, zukko olim sifatida u naqadar teran va mukammal yozilganini ko'radi va tasavvufona futuvvat bilan xamsanavislik maydonini Navoiyga boshatib beradi.

Shundan so'ng Sulton Husayn davrimiz uchun nihoyatda dolzarb fikr aytadi: Navoiy "Xamsa" sining afsonalari ranginligin va abyoti sehroyinligin va tarokibi(tuzilishi) matonatin va maoniysi latofatin mutolaa qilgon kishi bilgay va mulohaza qilgon kishi fahm qilgay<sup>118</sup>.

Alisher Navoiyning boshqa xamsanavis salafaridan farqli jihati shundaki, "Xamsa" ni fors-tojik tilida emas, turkiy tilda yozganligidir.

Asarlarning bosh g'oyasi, qahramonlar xarakterida ham tafovutlarni korishimiz mumkin. Masalan Xusrav Dehlaviy Nizomiy an'anasini davom ettirgan holatda, "Matla ul-anvor" dostonini "basmalayi sharif" bayti bilan boshlaydi.

Sharq mumtoz adabiyotida asarlar "basmala" bobi bilan boshlanadi. "Basmala" yoki "tasmiya" deb "Bi-smi-l-lohi-r-rahmoni-r rahiym" degan iboraga va shu iborani aytish yoki yozishga aytiladi. Ammo "tasmiyya" so'zining ma'nosi "basmala" sozining manosiga nisbatan umumiyroqdir. "Basmala" deganda asosan, "bi-smi-l-lohi-r-rahmoni-r rahiym" iborasi nazarda tutilsa, "tasmiyya" deganda shu ibora o'rnida ishlatish mumkin bolgan boshqa so'z yoki iboralar ham tushuniladi.<sup>119</sup> "Xamsa"lar ham bundan mustasno emas. "Xamsa"lardagi birinchi dostonlarda ushbu oyat badiiy jihatdan ham, estetik jihatdan ham, falsafiy jihatdan ham mukammal talqin qilingan. Xamsachilik an'anasini boshlab bergan ozar shoiri Nizomiy Ganjaviyning "Panj ganj" ("Besh xazina") dostonlar turkumining ilk dostoni "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasini") dostoni ham "Bismillahir rohmanir rohiym" oyatining sharhi bilan boshlanadi. Bob 50 baytdan iborat. Nizomiy Ganjaviy bobda shariat doirasidan chetga chiqmaydi, ya'ni har bir baytda Qur'on oyatlarining ma'no-mazmunini singdiradi. Alisher Navoiy Allohning Ar-Rohman va Ar-Rohiym sifatlarini keltirsa, Nizomiy Hakim sifatini keltirib, "Bismilloh" so'zini Allohning hikmat xazinasini uchun kalit deb hisoblaydi. Xusrav Dehlaviy esa "Bismilloh"ni "Fotiha" surasining birinchi oyati deb hisoblaydi.

<sup>117</sup> E.Э. Бертельс. Джами и Навои. Избранные труды, том 4, 1988.

<sup>118</sup> .A.A'zam. "Abrorlar hayrati". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi.-T-2021. 30-b.

<sup>119</sup> Alibek Rustamiy. "Bismilloh"ning ma'nosi.-Toshkent: "Cho'lpon", 1993.-4-b.

Alisher Navoiyning salaflaridan farqli jihati shundaki, ruju san'atidan betakror san'at yaratadi. Mumtoz adabiyotning san'atlaridan bo'lgan ruju shunday san'atki, unga muvofiq shoir bir fikrni bildiradi-da, yo'q, yaxshi chiqmadi deganday, undan qaytib boshqa fikrni aytadi. Mumtoz adabiyotda ruju bir marta qo'llangan baytlar kop, ketma-ket ikki marta qo'llangan hollar kam- bu alohida san'at hisoblanadi. Navoiy esa ketma-ket yetti marta qo'llamoqda. Yani,

Kimki mangulik xazinasiga yetmoqchi bo'lsa, bu marvaridlarni ( ya'ni, "Bismillahir rohmahir rohiym" oyatidagi harflarni ) ipga tizib, o'ziga tasbih qilib olsin.

Yo'q, bu shodaning ipi shunchaki ip emas, bir rangin kamandki, davlatmandni ham, dindorni ham o'ziga band qila oladi.

Shunchaki kamand emas, ipi jannat bog'ining ohularini band qiladigan ipdan.

Bu o'xshatish ham yaxshi emas, u ip jon suvi, hayvon suvi oqadigan tomirdan.

Yoq, jon suvi emas- jon suvi oqishdan to'xtashi mumkin, obi hayot suvi oqadigan tomirdan.

Bu o'xshatish ham ma'qul emas, gavhar bilan baholanadigan u ipning to'lg'anishi Allohning sifatleri xazinasini qo'riqllovchi ajdahoga o'xshaydi.

Yana yanglishdim, bu o'xshatishlarning bari ibtidoiy xolos; aslida u ip arshi a'lo qandilining ipidan.

Yo'q, yana ko'ngildagiday chiqmadi, u ip emas, vahdat xazinasiga boshlovchi yoldir.

Xusrav Dehlaviy Nizomiydan farqli o'laroq "Xusrav va Shirin" dostonida Xusravning shahzodalik davrini tasvirlamaydi. Doston uning taxtga chiqishi voqeasi bilan boshlanadi. Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida asar bosh qahramoni sifatida Farhodni keltiradi va uni komil inson darajasiga ko'taradi. U Xusravni esa nafsining quli, zulmkor shoh sifatida tasvirlaydi. Navoiyning salaflari esa Farhodni har qanday kamchiliklardan xoli shaxs sifatida tasvirlagan bo'lsa, Xusravda buni ko'ra olmaymiz. U aksariyat yosh shahzodalarga xos o'yinqaroq shaxs sifatida shakllangan va unda biror xarakter namoyon bo'lmaganligi tasvirlanadi. Farhodni oddiy xizmatkor, Xusravni esa adolatpesha, raiyatparvar podshoh sifatida tasvirlaydi.

Alisher Navoiyning ustozlari Abdurahmon Jomiy Nizomiy Ganjaviy an'alaridan qisman chekingan holda ikki mavzu- "Xusrav va Shirin" hamda "Shoh Bahrom" mavzularini chetlab o'tgan edi. Bu haqda "Yusuf va Zulayho" hamda "Xiradnomayi Iskandariy" dostonlarida izoh berib, "Xusrav va Shirin" o'rnida "Yusuf va Zulayho", Bahrom haqidagi doston o'rnida "Subhat ul-abror" ni "ne'malbadal" (biror narsani undan yaxshiroq narsa bilan almashtirish) qilganligini aytgan edi.<sup>120</sup>

"Layli va Majnun" dostonida Navoiy necha ming yillardan beri mavjud arablarning Layli va Majnun haqidagi syujetini aynan keltirmasdan, original, o'ziga xos doston yaratadi.

<sup>120</sup> S.Tohirov. Temuriylar davrida xamsanavislik. Monografiya. -2021. -121-bet.

“Sabbai sayyor” dostonida Navoiy Bahromning ijobiy fazilatlarini keltirmasdan, ko‘proq salbiy illatlariga, jumladan tabiat zararkunandasi sifatida tasvirlaydi. Salaflari esa Bahromni ijobiy fazilatli shaxs sifatida tasvirlaydi.

“Saddi Iskandariy” dostonida esa Navoiy Iskandarni adolatli shoh, ma’rifatparvar shaxs sifatida tasvirlasa, salaflari Iskandarni qonxor, zolim, adolatsiz podshoh sifatida tasvirlaydi. Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma” dostoni boshqa xamsanavislarining 5-dostonidan farqli ravishda ikki qismdan iborat: “Sharafnoma” va “Iqbolnoma”.

Ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiy “Xamsa”siga muallif zamondoshlari tomonidan berilgan yuksak baho, eng avvalo “Hayrat ul-abror” tufaylidir. Haqiqatan, bu asar badiiy jihatdan ham, falsafiy jihatdan ham beqiyos, yuksak darajada yozilgan. Bunday asar faqat uzoq tayyorgarlik natijasidagina dunyoga kelishi mumkin. Navoiy bu missiyaga bolaligidan o‘zini tayyorlagan, uzoq yillar davomida asarning g‘oyaviy fabulasini dilida pishitib kelgan.

Xamsalarning yozilish muddatida ham tafovutlar bor. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” ustida uzoq muddat, 15 yil ishlagan. Chunki, Ganjaviy “Xamsa” yaratish maqsadida ijodga qo‘l urmagan. Keyinchalik yozgan asarlarini yaxlit Xamsaga jamlagan. Xusrav Dehlaviy 7 yil, Abdurahmon Jomiy 8 yil, Alisher Navoiy 2 yil ishlaganligi, shu vaqt ichida dunyoga mashhur va tengsiz durdona yaratganligi ma’lum bo‘ladi. Navoiy beqiyos ko‘lamdagi jamoat ishlaridan bo‘sh vaqtlarida yozgan, sarflagan vaqti hisobga olinsa, 6 oyga ham yetmagan. Shu bilan Navoiy “Xamsa”si jahon adabiyotining cho‘qqisi nomiga munosib asardir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”.- Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

1. Abdulla A‘zam. “Abrorlar hayrati”.- G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi.-T-2021.

2. Alibek Rustamiy. “Bismilloh”ning manosi.-Toshkent: “Cholpon”, 1993.

3. S. Tohirov. Temuriylar davrida xamsanavislik. Monografiya.-2021.-121-b.

4. Е.Э. Бертельс. Джамии и Навои. Избранные труды, том 4, 1988.